

**EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARINI VALYUTA AMALIYOTI
XUSUSIYATLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH**

Matekeeva Nazigul Baxytovna.

*O‘zbekiston Respublikasi Bank moliya
akademiyasi magistratura tinglovchisi*

Tel: +99899 955 79 32 E-mail: nazimatekeeva91@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda eksportni rivojlantirish va eksporterlarni himoya qilish chora-tadbirlari hamda eksport-import operatsiyalarida valyuta xususiyatlari ochib berilgan. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon bozoriga integratsiyalashib borayotgan bir sharoitda, mahalliy kompaniyalarimiz iste‘mol hajmi o‘sib borayotgan, ya‘ni rivojlanayotgan mamlakatlardagi yangi bozorlarni egallash hisobidan eksportni ko‘tarishga erishish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: valyuta, eksport, import, tashqi iqtisodiy faoliyat, byudjet, tadbirkorlik faoliyati, birja savdolari.

Hozirgi kunda mamlakatimizda hukumatimiz tomonidan iqtisodiyot sohasiga qaratilayotgan e‘tibor har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadbirkorlar va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar ichki bozorlarimizni import o‘rnini bosuvchi, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to‘yintirish imkonini yaratib, O‘zbekistonning dunyo bozoridagi reytingini ortishiga ham xizmat qilib kelmoqda.

Jahon siyosati va iqtisodiyotidagi mavjud tendensiyalar bojxona ma‘muriyatchiligining rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Bojxona organlari faoliyati zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida yanada soddalashdi va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining asosiy ko‘makchisiga aylanib ulgurdi. Shu bilan birga, bojxona xizmatlarini takomillashtirish borasida yangi raqamli texnologiyalardan foydalanish va manfaatli hamkorlik olib borish muhimligini ko‘rsatdi.

Bojxona qo‘mitasining 2011-yil 14-maydagi 134xfu-sonli buyrug‘iga binoan “Yo‘lovchi bojxona deklaratsiyalari” avtomatlashtirilgan axborot tizimi amaliyotga joriy etildi. Yo‘lovchi bojxona deklaratsiyalari ma‘lumotlar bazasi ma‘lumotlarini shakllantirish, jismoniy shaxslar tomonidan valyuta qimmatliklarini olib kirilishi va olib chiqilishi hisobi yuritila boshlandi.

Jahon savdo tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning standartlari va tavsiyalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bojxona ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishni talab etadi.

Shu bilan birga, “qog‘ozsiz va elektron bojxona” lozim darajada rivojlanmayapti, kontrabanda, kontrafakt mahsulotlarni olib o‘tish, korrupsiya, noqonuniy valyuta operatsiyalari va bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlashga qarshi kurashish usullari bojxona ma‘muriyatchiligining zamonaviy va sinovdan o‘tkazilgan usullarini qo‘llashni talab etmoqda.

Bojxona qiymati deklaratsiyasi quyidagi hollarda to‘ldirilmaydi va bojxona qiymati bojxona yuk deklaratsiyasida ma‘lum qilinadi, agar: bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar turkumining bojxona qiymati bir ming AQSh dollariga teng ekvivalent summadan oshmasa, bundan bitta kontrakt (shartnoma, kelishuv) doirasida bir necha marta tovar yetkazib berish, shuningdek turli kontraktlar (shartnomalar, kelishuvlar) bo‘yicha ayni o‘sha tovarni bir jo‘natuvchi tomonidan ayni o‘sha bitta oluvchining manziliga takror-takror yetkazib berish mustasno; olib o‘tiladigan tovarlar bojxona to‘lovlarini to‘lashdan ozod etilgan bo‘lsa.

Bugungi kunda tashqi iqtisodiy faoliyatda boj tarifi siyosatini to‘g‘ri amalga oshirish tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag‘batlantirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, eksport tovarlarini jahon bozorlaridagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon xo‘jaligi tizimiga samarali integratsiyalashuvini ta‘minlash bilan birga, davlat byudjeti daromadlar qismini boyitishga hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashga imkoniyat yaratadi. Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda va uning tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda bojxona to‘lovlaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Bojxona to‘lovlari tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda tashqi savdo aylanmasini zarur darajada tartibga solish, iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash hamda fiskal vazifalarni bajaradi. Bojxona to‘lovlari miqdoriga va ularning yig‘iluvchanligiga bir qancha omillar ta‘sir qiladi, ularga tashqi savdo aylanmasi hajmining kengayishi tovarlarning bojxona qiymatini to‘g‘ri belgilanishi, qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarining undirilishi, xavf guruhiga kiritilgan tovarlar ustidan bojxona nazorati samaradorligini oshirilishi, bojxona to‘lovlarini hisoblash uchun aralash stavkalarining joriy etilishi, uzoq davrlardan beri undirilmay kelingan muddati kechiktirilgan va debitor qarzdorliklarni undirilishi, valyuta kursining ko‘tarilishi va bojxona ishida axborot texnologiyalarini keng qo‘llanilishini kiritish mumkin. Shulardan kelib chiqib, tovarlarning bojxona qiymatini to‘g‘ri belgilanishi bojxona to‘lovlari miqdoriga va ularning yig‘iluvchanligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bojxona qiymati — zamonaviy bojxonatarif tizimlarining g‘oyatda muhim jihati hisoblanadi.

Tashqi savdo aylanmasida katta o‘zgarishlar kuzatilyapti bunga albatta ichki va tashqi omillar ta‘siri doirasida amalga oshmoqda. Shu yuzasidan dastlab tashqi savdo aylanmasining eksport qismining tarkibi va unga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rgansak. Yaqin besh yillik tarixga nazar soladigan bo‘lsak 2017-yilga nisbatan 2021-yilda

eksport hajmi 32,31%, import hajmi 81,7% ga oshdi. Ushbu raqamlarni yuzaga kelishida ichki omillar sifatida mamlakatimizda eksportni qo‘llab quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan islohotlar va buning oqibatida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining soni keskin oshdi, valyuta siyosati liberallashtirildi, ma‘muriy to‘siqlar bartaraf etildi, eksport qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun narxlarni shakllantirish va to‘lovning bozor mexanizmi yaratildi va eksport operatsiyalari bilan shug‘ullanayotganlarning transport xarajatlarini 70% gacha kompensatsiya qilib berish amaliyoti sabab bo‘la oladi. Tashqi omil esa bevosita jahon bozorlaridagi yangi mahsulotlar eksportini o‘zlashtirilishi, savdoni moliyalashtirish uchun xalqaro va xorijiy moliya institutlarining qarzlari va imtiyozli kreditlarini jalb qilish, xalqaro savdo yarmarkalari, taqdimotlari va reklama kompaniyalarida ishtirok etishi, shu jumladan an’anaviy milliy mahsulotlar va brendlarni potensial bozorlarda ilgari surish kabilar misol bo‘la oladi. Ammo bu borada hali ham talablarga asoslangan investitsion muhit, xalqaro sifat sertifikatlarini olish tartib-taomillarini soddalashtirilmaganligi, jahon bozoriga chiqish uchun transport va chegaraviy infratuzilmani rivojlantirish yetarli emasligi o‘tgan yillardagi eksport hajmini tahlil qilish, uning tarkibini o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltiradi.(1-jadval).

1-jadval.**O‘zbekiston Respublikasida 2017-2021-yillarda eksport tarkibi dinamikasi
(mln.AQSH dollarida)¹.**

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

	Tarkibi	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
	Kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari	883,7	905,3	878,1	873,2	1225,3
	Paxta	477,1	222,1	281,6	146,9	136,5
	Oziq-ovqat mahsulotlari	875,9	1097,8	1 529,90	1 443,80	1471,8
	Energetika va neft mahsulotlari	1607,6	2666,8	2 528,90	659	889,9
	Qora metallar	152,8	320,3	302,7	317,5	186,4
	Rangli metallar	761,9	851,5	951,3	924,4	1467
	Mashina va asbob-uskunalar	354,8	212,8	427,1	442	702,8
	Xizmatlar	2474,5	3070	3434,8	2005	2547,4
	Oltin	3 260	2 909,5	4918,3	5804,4	4109,8
	Boshqalar	1705,3	1734,5	2206	2486,1	3873,6








Eksportni rag‘batlantirish, xususan mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorga olib chiqishni har tomonlama soddalashtirish hamda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida 2017-yilga nisbatan 2020-yilda oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti 64,8% ga, qora va rangli metallar 35,7% ga, mashina va asbob-uskunalar eksporti 24,5% ga boshqa mahsulotlar eksporti esa 45,7% ga o‘sgan. Yuqoridagi eksport dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, paxta mahsulotining eksporti yildan-yilga kamayib bormoqda. Bunga asosiy sabab sifatida mamlakatimiz yengil sanoatida xom-ashyo eksportidan tayyor mahsulotlar eksportiga ixtisoslashuvini ko‘rishimiz mumkin. Boshqa turdagi mahsulotlar eksporti o‘shish va kamayish bo‘yicha barqarorligini saqlab qolmagan. O‘tgan davrda tovar va xizmatlar eksport qiluvchi korxonalar soni ko‘payib, hamkor mamlakatlarning eksport geografiyasi kengayib bormoqda.

Mamlakatimiz aholisining tovarlarga nisbatan ehtiyojini qondirish va ichki bozorni to‘yintirish maqsadida turli mamlakatlardan turli mahsulotlar import qilinadi.

Bu o‘z navbatida respublikada real iqtisodiyot korxonalari va tarmoqlarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun zarur resurs bazasi yaratiladi. Import ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak 2017-yilga nisbatan 2021-yilda import hajmi 81% dan ko‘proqqa oshdi. Bunga asosiy sabab sifatida tashqi savdoni erkinlashuvi yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarni ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval.

**O‘zbekiston Respublikasi 2017-2021-yillarda import tarkibi dinamikasi
(mln.AQSH dollarida)².**

	Tarkibi	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
	Kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari	2187,0	2527,6	3201,7	3436,7	4260,1
	Oziq-ovqat mahsulotlari	1273,9	1581,6	1885,0	2159,6	2926,2
	Energetika va neft mahsulotlari	742,1	879,5	940,6	1106,9	1541,0
	Qora metallar	1135,7	1579,8	1843,4	1473,6	1986,3
	Mashina va asbob-uskunalar	4997,1	8366,1	10633,4	8904,2	9454,4
	Rangli metallar	139,3	193,5	273,5	277,7	326,5
	Xizmatlar	1977,2	2127,0	2425,9	1221,4	1736,8
	Boshqalar	1560,2	2184,1	3088,9	1241,6	3229,7

Import dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak 2017-yilga nisbatan 2020-yilda rangli metallar 99,3%ga, oziq-ovqat mahsulotlarining importi 69,5%ga, mashina va asbob-uskunalar eksporti 78,1%ga, kimyoviy mahsulotlar va ularning mahsulotlari importi 57%ga energetika va neft mahsulotlar importi esa 49,1%ga o‘sgan. Mashina va asbob uskunalarining import tarkibida o‘rning o‘sib borishiga O‘zbekistonda o‘xshashi ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalarining import bojxona boji va qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinganligi misol bo‘la oladi. Oziq-ovqat mahsulotlari, energetika va neft mahsulotlari importi oshishiga bevosita aholining bu turdagi tovarlarga nisbatan talabi oshishi bilan o‘zaro bog‘liq hisoblanadi. Kimyoviy mahsulotlarning bevosita o‘shishiga bu turdagi tovarlarga nisbatan talab o‘shishi va

² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

pandemiya davrida shu turdagi tovarlar oqimi tezlashuvi shuningdek ishlab chiqarish hajmlarining keskin oshishi sabab bo'lgan. Shuningdek qora metallar, xizmatlar va boshqa turdagi mahsulotlar importida o'sish yoki kamayish barqarorligini saqlab qolmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi. 08.12.1992-y. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/>
2. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi. O'RQ-400-son. 20.01.2016-y. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/>
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi. O'RQ-599-son. 30.12.2019-y. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi. PQ-3818-son, 29.06.2018-y. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi. PQ-4086-son, 27.12.2018-y. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/>
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Eng ko'p qulaylik rejimi hamda erkin savdo rejimini yaratgan holda savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi bitimlar imzolangan davlatlar ro'yxatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining qo'shma qarori. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi. AV-3267-son, 30.06.2020-y. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/>